

AJRATILGAN GAP BO‘LAKLARINING LINGVISTIK TAHLILI

*O.Q.Jumayev, Samarqand davlat chet
tillar
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Kalit so‘zlar: Ajratilgan bo‘laklar, murakkab sintaktik butunlikka, infinitivli sintaktik qurilmalar, intonasiya, stilistik hodisa, ajratish hodisasi, to‘ldiruvchili ajratilgan bo‘laklar, sintaktik aloqa, semantik vazifa, ilova hodisasi.

Hozirgi davrda tilshunoslik sohasida murakkab sintaktik butunlik sintaktik-stilistik hodisa sifatida ko‘plab ishlarda qo‘llanilmoqda va uning yangi-yangi shakllari yuzaga kelmoqda.

Germanshunos olimlarning ajratish hodisasini o‘rganishga bag‘ishlab yozgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishar ekanmiz, ular tomonidan ajratish hodisasining bir qator yangi xususiyatlari izohlanayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli biz maqolamizda ajratilgan bo‘laklarga xos bo‘lgan boshqa xususiyatlarni germanshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili doirasida namoyish etishni davom ettiramiz. Tahlilni eng avvalo ushbu tilshunoslarning gap bo‘laklarini ajratishga ta‘sir qiluvchi omillar haqidagi fikr-mulohazalari bilan boshlab, shundan so‘ng ularning ajratilgan gap bo‘laklariga nisbatan bergan baholariga to‘xtalamiz.

Murakkab sintaktik butunlikka nisbatan qo‘llanilayotgan bunday xilma-xil terminologik tushunchalar qanday atalishidan qat‘iy nazar, ular yagona lingvistik mohiyatga ega bo‘ladi va faqat shu sintaktik-stilistik hodisa uchun xizmat qiladi. Lekin, murakkab sintaktik butunlikning lingvistik mohiyatini izohlashda albatta ularning strukturaviy guruhlarini ham e‘tiborga olish lozim bo‘ladi [Begmatov 2020: 131].

Nemis tili grammatikasi sohasida bugungi kungacha juda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa ham, uning ayrim tomonlari o‘z yechimini

yetarlicha topmagan. Mazkur sohada kam o'rganilgan yoki ayrim sabablarga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishlarining tekshirish ob'yektiga aylanmagan muammoli masalalaridan biri bu – murakkab gap sintaksisidir [Mambetniyazova 2021: 16].

Bu sohada ayniqsa K.Ya.Petrovskaya va G.V.Kolshanskiylarning nemis, ingliz tillari materiallarida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Masalan, K.Ya.Petrovskaya tadqiqot ishlarida holli, aniqlovchili va to'ldiruvchili ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish jarayonida, gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi tartibda izohlaydi: 1) ikkinchi darajali bo'laklarning ma'no xususiyatlari; 2) ikkinchi darajali bo'laklarning ifodalanish usullari; 3) aniqlanmishning ifodalanish usullari; 4) ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida tutgan o'rni; 5) bir nechta ikkinchi darajali bo'laklarning parallel mavjudligi va ularning bir birlariga nisbatan izohlanayotgan bo'lak vazifasida kelishi; 6) ikkinchi darajali bo'laklarning hajmi; 7) muallifning shu gap bo'lagining ma'nosini bo'rttirib, boshqalardan ajratib ko'rsatish niyati [Petrovskaya 1953: 18]. K.Ya.Petrovskaya tomonidan ko'rsatib o'tilgan gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir etuvchi bunday omillar G.V.Kolshanskiyning "Грамматическая функция обособления членов предложения" mavzusidagi maqolasida ma'lum darajada morfologik izohini topgan. Muallif rus, nemis va boshqa bir qator tillarda uchraydigan ajratilgan bo'laklarning grammatik vazifasini o'rganish jarayonida, ularni yuzaga keltiruvchi omillar to'g'risida quyidagicha xulosaga keladi: 1) aniqlovchining morfologik xususiyati; 2) aniqlanmishning morfologik xususiyati; 3) aniqlanmishli guruhlarning tarkibiy qismi va ularning kengayish usullari; 4) aniqlanmishli guruhlarning tutgan o'rni; 5) aniqlovchilarga nisbatan yonma-yon turuvchi boshqa aniqlovchilar; 6) boshqa bir qator grammatik omillar [Kolshanskiy 1962: 36].

Gap tarkibidagi ajratilgan bo'laklarga xos xususiyatlarning qay tarzda farqlanishi haqidagi fikr-mulohazalar to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lish maqsadida shu sohaga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlilini keltirishni lozim topdik. Ikkinchi darajali gap bo'laklarining yangicha sifatga o'tishini, yangi funksiyalarda kelishini asoslab beruvchi ilmiy manbalar xulosalarini keltirib o'tamiz. Ilmiy

manbalar deganda biz, germanshunos olimlarning monografik asarlarini, ular tomonidan chop etilgan nemis tiliga oid grammatik darsliklarni, shuningdek, shu mavzuga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini tushunamiz.

Germanshunos olimlarning gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan bildirib kelayotgan bunday munosabatlarini qiyoslab o'rganar ekanmiz, ularning bu sohadagi fikr-mulohazalari bir xil emasligiga guvoh bo'lamiz. Lekin shu narsani alohida ta'kidlash joizki, olimlarning ajratish hodisasiga nisbatan bo'lgan qarashlari, fikr-mulohazalari har xil bo'lishidan qat'iy nazar, ular ushbu hodisaning barcha xususiyatlarini yoritishga harakat qilganlar.

Nemis tilida ham, boshqa tillardagidek, ajratilgan bo'laklarni o'rganishga keng o'rin berilgan, biroq shunga qaramasdan ularning ba'zi bir xususiyatlari hozirgi kungacha izlanish doirasidan chetda qolib ketmoqda, yoki ularga yetarlicha ahamiyat berilmagan. Ajratish hodisasining ana shu ilmiy-tadqiqot ishlarida kam o'rganilgan sohalarini aniqlash va ularga alohida e'tibor qaratish maqsadida, germanshunos olimlarning ilmiy ishlarida, shuningdek nemis tili grammatikasiga oid adabiyotlarda ajratish hodisasiga nisbatan bildirgan munosabatlarga to'xtalishni lozim deb bilamiz. Dastlabki mulohazalarni Konrad Duden tahriri ostida chop etilgan "Grammatik der deutschen Gegenwartssprache" nomli grammatika darsligida ajratish hodisasi to'g'risida keltirilgan quyidagi fikr bilan boshlash o'rinlidir: "Gap tarkibida gap bo'laklari orasida mavjud bo'lgan sintaktik aloqaning uzilishi ulardan birining boshqalardan ajralgan holda mustaqil bo'lak vazifasida ifodalanib kelishi uchun zaruriyat tug'diradi, natijada ushbu bo'lak oddiy bo'laklardan vergul bilan ajratiladi" [Duden 2009: 478]. Ushbu holatni quyidagi misollar tasdiqlaydi. Masalan:

1. "Karl, mein bester Freund, ist gestern verreist".

2. "Schubert, den Schöpfer vieler Lieder, liebe ich von allen Komponisten am besten".

Odatda ajratilgan bo'laklar vazifasida, bizga ma'lum bo'lgan manbalarga ko'ra, ko'pincha aniqlovchili, sifatdoshli, infinitivli sintaktik qurilmalar qo'llanib keladi. Keltirilgan misollar tarkibida ajratilgan bo'laklar vazifasida – ega (1) va

to'ldiruvchi (2) ifodalanib kelmoqda. Bunday ajratilgan bo'laklarga nisbatan ushbu darslikda "*Apposition*" – "izohlovchi", "*Restglied eines Satzes*", ya'ni "gapning qoldiq qismi", "gapning qo'shilma qismi", "gapning ortiqcha qismi" kabi terminlar qo'llanilgan. Ajratilgan gap bo'laklari boshqa germanshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida boshqacharoq nomlanishga ega bo'ladi.

Germanshunos olimi L.P.Nesterova nemis tilida ajratilgan gap bo'laklarining intonasion xususiyatini eksperimentlar o'tkazish yo'li bilan o'rganib, quyidagilarni yozadi: "Kontekstual vaziyatning ko'rsatishicha, ajratilgan bo'laklardan tashkil topgan sintaktik qurilmalarda ikki xil kommunikativ markaz hosil bo'ladi, ulardan biri ajratilgan gap bo'laklari tarkibida, ikkinchisi esa tayanch gap tarkibida" [Nesterova 1969: 10]. Ushbu fikrni tasdiqlash maqsadida muallif quyidagi misolni keltiradi.

"Die Mutter, sehr verlegen, trat wieder ein".

Sxemasi: [Ega (Tema) – ajratiladigan gap bo'lagi (Rema) – kesim (Rema) – hol (Rema)].

Ushbu gap tarkibida murakkab mazmuniy ma'no yotadi, chunki ajratilgan gap bo'lagi (*sehr verlegen*) bu yerda ikki tomonlama ma'no munosabatiga kirishadi: birinchidan, u ma'lum bo'lakni (*Die Mutter*) izohlaydi, aniqlaydi; ikkinchidan, gapning kesimi orqali butun gap mazmuni bilan ma'no munosabatiga kirishadi. Shu sababli, muallif ta'kidlaganidek, ikki xil kommunikativ markaz hosil bo'ladi. Bu esa til birliklari bilan nutq birliklarining doimo o'zaro bog'liqlikda ekanligini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Ajratilgan bo'laklar bunday sintaktik qurilmalar tarkibida nutq birliklari, ya'ni muhim kommunikativ birliklar sifatida shakllanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, biror-bir gap bo'lagingining ajratilishi uchun alohida shart-sharoit bo'lishi shart emas, chunki gap bo'lagingining ajratilishi gapning sintaktik qurilishi yoki ajratilgan bo'laklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqmaydi, aksincha u yoki bu muallif individual uslubining mahsuli bo'lib, ularning yoyilish darajasi yozuvchining uslubini bilan belgilanadi. B.T.Tursunov ajratish hodisasi bilan ilova hodisasini qiyoslab o'rganish natijasida quyidagi

xulosasiga kelganini eslatmoqchimiz: “Ajratish va ilova hodisalari – bu o‘z tabiatlariga ko‘ra stilistik hodisalardir, shu sababli ham ularning badiiy matn doirasida yoyilish darajasi faqatgina u yoki bu yozuvchining individual uslubi bilan belgilanadi” [Tursunov 2004: 57].

Ajratish hodisasi bilan ilova hodisasi o‘rtasida o‘xshashliklar ularning gapda bajarayotgan funksiyalarida o‘z yechimini topadi. Masalan, gap tarkibidagi ma’lum bo‘lakning ma’nosini ajratilgan bo‘laklar kabi ilovali unsurlar ham “qo‘shimcha” ma’no bilan asosiy gap tarkibidagi ma’lum bo‘lakning ma’nosini konkretlashtirish, aniqlash va gap mazmunini to‘ldirish, ifodalash funksiyasini bajaradi; ilovali unsurlar kabi ajratilgan gap bo‘laklari ham stilistik hodisadir, ularning matnda qo‘llanilishi yozuvchining individual uslubi bilan belgilandi. Bu ikkala hodisani B.T.Tursunov quyidagicha ta’kidlaydi, “Ilovali unsurlar ajratilgan bo‘laklardan ikki xil usulda farqlanadi: birinchidan, intonasiyasi bilan; ikkinchidan, o‘zlari bog‘liq bo‘lgan ma’lum bo‘laklarga nisbatan joylashgan o‘rinlari bilan. Ilovali unsurlarning intonasiyasi uzilish xarakteriga ega bo‘lib, u yozma nutqda asosiy ifodadan “nuqta” yordamida ajraladi. Ajratilgan bo‘laklarning intonasiyasi esa ajratilish xarakteriga ega bo‘lib, u ma’lum bo‘lakdan yozma nutqda vergul, tire yoki ikki nuqta bilan ajraladi. Ilovali unsurlar asosiy gap bo‘lagiga nisbatan faqat postpozitsiya holatida kela oladi, ajratilgan bo‘lak esa ma’lum bo‘lakka nisbatan turli xil pozitsiyalarda ifodalanib kelishi mumkin” [Tursunov 2002: 76-77]. B.T.Tursunovning fikriga muvofiq, ajratilgan bo‘lak bilan ilova hodisaning bir-biriga o‘xshashlik jihatlari kabi farq qiluvchi tomonlari ham mavjud.

Murakkab gaplarning ba’zi bir struktur tuzilishlari xilma-xildir, chunki ajratilgan qurilmalar faqatgina sodda gaplar tarkibidagina emas, balki qo‘shma gaplar tarkibida ham, shuningdek murakkab sintaktik butunliklar tarkibida ham bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов М.Б. Немис тилида илова конструкциялар. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2020, - Б. 131.

2. Колшанский Г.В. Грамматическая функция обособления членов предложения // «Филологические науки».- М., 1962, №1. - С. 36.

3. Мамбетниязова А.Х. Ҳозирги замон немис тилида тўлдирувчиларнинг ажратилган бўлак сифатида бажариб келадиган коммуникатив прагматик функциялари. Автореф. дисс....PhD. - С., 2021. - Б. 16.

4. Нестерова Л.П. Интонация предложений с обособленными атрибутивными конструкциями в немецком языке. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. - М., 1969. - С. 10.

5. Петровская К.Я. Обособленные второстепенные члены предложения в современном английском языке. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. - Л., 1953. - С. 18.

6. Свиблова Т.А. Обособленные члены предложения в современном немецком языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М., 1966. – С. 11.

7. Турсунов Б.Т. Мураккаб синтактик конструкцияларни ўрганишга доир // Халқаро илмий конференция материаллари тезислари (2002 йил 14-15 март, Самарканд). – Самарканд, 2002. - Б. 76-77.

8. Турсунов Б.Т. Обособление и присоединение // «Илмий тадқиқотлар ахборотномаси». – Самарқанд: СамДУ, 2004, №2, - Б. 57.

9. Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache.- L., 2009. – S. 478.
Mann. T. Gesammelte Werke, zweiter Band, 1966. - S. 561

